

XX ASR BIRINCHI YARMI KOREYS ROMAN JANRI BADIYYATI

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola XX asrning birinchi yarmida koreys jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning adabiy jarayonlarga ta'siri, uzoq muddat tanaffusdan so'ng qayta qo'l urilgan roman janri, mavzular ko'lami, yangi obrazlar masalasi ko'rib chiqilgan. Ichki va tashqi omillar ta'siriga tushgan koreys adabiyotida roman janrining yetakchilik qilishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: roman, dehqon va ishchi obrazi, xan kategoriyasi, syujet, motiv, yangi mavzu.

XX asrga kelib koreys adabiyotshunosligida mumtoz davr romanlaridan farqli ravishda g'arb, yapon va rus adabiyoti ta'sirida yozilgan yangi tipdagi romanlar taqdim etildi. O'rta asrlarda Kim Manjun tomonidan yozilgan ilk koreys romani "To'qqiz kishining bulutli tushi" syujeti B. Putilovning: "motiv syujetning mag'zi"¹ fikraga ko'ra, tush motivi hamda muallif obrazi e'tiqodiy ishonchi asosiga qurilgan edi..

XX asr boshida mamlakatda yapon mustamlakachilariga qarshi arxaistlar va ma'rifatparvarlar harakati kuchaydi. Dastlab ijodkorlar harakat faollarini qo'llab-quvvatlovchi inqilobiy qo'shiqlar, kichik komediyalar, satirik pesalar yozdilar. Kuchli ta'qiqlarga qaramay, chuqurlashib borayotgan kurashlarga homahang tarzda adabiyotda inqilobiy mavzulardagi hikoya va qissalar salmog'i oshdi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ijod ahli oldiga yangi mavzular bilan birga faol kurashchilarning umumlashma obrazini yaratish vazifasini qo'ydi. Zero, kichik hikoya shakli bularning barchasini o'ziga sig'dira olmasdi².

XX asr boshida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit o'zgardi, feodal qoloqlik davridan jadal rivojlanish yo'lga kirgan yurtda insonlarning dabdurustdan yangi

¹ Путилов Б. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. – С. 142.

² Chung Chong-wha. Modern Korean Literature. Ananthology 1908-1965. – London. 1995. – P. 91.



sharoitlarga ko'nikishlari og'ir kechdi. Yoshlar o'rtasida avj olgan ishonchsizlik, xorijiy davlatlarda yangi bilimlarni o'zlashtirgan bo'lsa-da, o'z yurtida atrofdagilarning shubhali qarashlari sabab ona vatan, qadrdon uy – falakiy ko'lamdagi makonga aylandi. Mana shunday murakkab sharoitda avval nazmda ijod qilgan Li San umrining so'nggi pallasida nasrda katta hajmli asarga qo'l urdi. Adibning “12 dekabr” romani qahramonning jamiyat, obyektiv borliq bilan aloqadorlikdagi shaxsiy taqdiri haqida hikoya qiladi. Yozuvchi qahramonning taqdirini ko'plab yurtdoshlari uchun umumiy va xos bo'lgan jihat – Vatanni tark etish va dunyo bo'ylab sargardon kezishga majburlik holatida real tasvirlaydi.

Roman qahramoni X. – sodda, oddiy askar. Ichki madaniyati yuqori bo'lgan bosh qahramon xiyonat va vijdon, burch kabi muqaddas tushunchalar qarama-qarshiligi oldida ojiz edi. Vatanida yashagan chog'ida u qashshoqlik yoqasida turgan ko'plab yurtdoshlari taqdiriga sherik bo'ladi. Xalq oldida eng muhim muammo bu moddiyat bo'lib, inson ko'ngil tilaklariga qarshi borishga majbur edi. Rizq-ro'z talabida u vatanini tark etib, yurtini istilo qilgan begona insonlar bilan birga yashashga, pul topish uchun o'zga yurt havosidan nafas olishga majbur. Shu jihatdan qahramonning hayotiy sinovlari ko'plab muhojirlar chekiga tushgan qismatga deyarli o'xshash. Ammo, hayot haqidagi qarashlar, vatan oldidagi burch uni faqat yashash uchun pul topish bilan mashg'ul oddiy muhojirlardan sezilarli darajada ajratib turadi.

Yapon mustamlakasi mafkurasining ijtimoiy-siyosiy talablari oldida ojiz bo'lsa-da, Li San atrof-muhitdagi ko'plab voqea-hodisalarni o'zining modernistlarga xos o'lchovlari bilan fahmladi va qabul qildi. Bu holat uning asarlari qahramonlariga ham xos bo'lib, u insoniyatning fojiaiy taqdirini ifodalovchi ramziy bo'rttirilgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Romanning qolgan barcha personajlari – sukut saqlaydilar, ular faqat faoliyatlari bilan ishtirok etadilar. Atrofidagi moddiy dunyo tashvishlari bilan yashayotgan odamlardan nafratlanadi, mamlakat ozodligi bilan bog'liq muammolar tashvishlantiradi.

Li Sandan farqli ravishda o'z haq-huquqi uchun kurashayotgan xalq, ishchi va dehqonlarning mazlum hayotini o'zida aks ettirgan Li Giennig “Vatan” (1934), “Bahor” (1940), Kan Kyon Ening “Bashariyat muammosi” (1934), Xon Myon Xining “Im Kok Chon afsonasi” (1939) kabi tarixiy romanlari chop etildi. Kim Manjun singari Li Giennig “Bahor” avtobiografik romanidagi ona obrazi adib onasining prototipidir. Umuman, muallifning juda ham ko'p asarlari ona siymosini yaratishga qaratilgan.



Barcha xalqlar uchun ona obrazi o'zgarmay qolaveradi. Buni Li Gvansuning "Qon bilan yozilgan satrlar" hikoyasidagi ijarachi kampir – ona obrazi ham tasdiqlaydi. Yozuvchi oilada xo'jalik ishlarini yuritish va bola tarbiyasi bilan shug'ullangan onasi o'zining eng yaqin do'sti bo'lganligini ta'kidlaydi. Romanda oilaning qashshoqligiga qaramay, ona o'z farzandlariga boshlang'ich ta'limni berishga muvaffaq bo'lganligi hurmat bilan tilga olinadi.

1933-1934 yillar davomida "Koreys qaydlari" gazetasida bobma-bob chop etilgan muallifning "Vatan" romanida koreys xalqining fidoyi siymosi gavdalanadi. Romanda qishloqning oddiy qashshoq ijarachi dehqoni hamda olis shahar zavodida ishlaydigan mazlum ishchilarning hayoti o'rtasida parallel o'tkaziladi. Olis qishloq farzandi ham, shahar odami ham birdek qashshoqlik, yo'qsillik hamda boylik oldida o'z vijdonini yo'qotmaydi. Roman janubiy koreyalik tanqidchilar tomonidan realizm yo'nalishida yozilgan yapon istilosini davrining eng sara asarlari qatoriga kiritildi³. Yozuvchi ijodini ilmiy tahlilga tortgan rus olimasi V.V. Ivanova ham mazkur romanni adib ijodida "ahamiyatga molik roman"⁴, deb e'tirof etadi.

Muallifning "Zamin", "Ponxvasan tog'i", "Laylaklar qishlog'i" romanlarida mamlakatda avj olgan sudxo'rlik, xonavayron bo'lgan ijarachi dehqon, ommalashib borayotgan jamoa (kolxoz) sharoit, koreys qishlog'i hayoti, chorasiz ziyoli insonlar masalasini haqqoniy tasvirlaydi. Kuchli bosim ostida hayotga bo'lgan ishonchi so'ngan, begonalik tuyg'usiga oshno bo'lgan insonlar obrazida yangi hayotga, yangi sharoitga moslasha olmayapgan xalqining fojiasi ayon bo'ladi.

Kan Kyon E "Bashariyat muammosi" romanida mustamlaka davrida ishchi va dehqonlarning umumlashma obrazini chizadi. Mustamlaka sharoitida mazlum, itoatli xalqning rohat ko'rmasa-da, vaziyatga moslashib tinimsiz mehnat qilishida – koreys xalqi ruhiyatini o'zida aks ettirgan azaliy xan kategoriyasi ko'zga tashlanadi. Yozuvchining bu asarini o'qigan adiba Pak Vanso o'zining "Shuncha shinganing gulini kim yegan?" romanida o'z mulohazalarini shunday ifodalaydi: "Kan Kyon Ening romani ruhiy jihatdan chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ishtaham qochib, bir necha kun hech narsa yeya olmadim. Romanda bolaning boshiga yiringli yara toshgan sabab dori vositasi sifatida sichqon terisini shilib, xuddi telpakdek kiydirib qo'yishadi. Oxir-oqibat bolaning boshida butunlay lichinkalar g'ujg'on o'ynaydigan bo'lib qoladi.

³ Small dictionary of Korean literature. – Seoul. 2000. – P. 412.

⁴ Иванова В.И. Новая проза Кореи. – М., 1987. – С. 94.



Garchi men ham et kuysa darrov tvenjang⁵ surkaydigan muhitda o'sgan bo'lsam-da, bu yoqimsiz va qo'rqinchli hikoyadan ko'nglim ozidi"⁶.

Mashhur yozuvchi Yom Sansop murakkab va ziddiyatlarga to'la zamon – yapon anneksiyasi davrida yashab ijod qildi. Avval hikoya janrida ijod qilgan adibning “Uch avlod” romani uning eng salmoqli adabiy yutuqlaridan biri sifatida tan olindi. Roman trilogiyadan iborat bo'lib, uning har bir qismi o'z nomiga ega: “Faqat senga og'ir deb o'ylaysanmi?”, “Birinchi mojaro”, “Ovoza”.

Romanning qisqacha mazmuni shunday: Cho Ing Van ismli dongdor boy butun umrini aysh-ishratda o'tkazadi. Yanbanlar odatiga ko'ra, uning kelinidan ham yosh ma'shuqasi bor. Qariyaning rasmiy ayolidan yoshi ellikka yaqinlashib qolgan o'g'li San Xun va ma'shuqasi Su Von Chidan Kvi Sun ismli qizi bor. Bosh qahramonlar qatorida Cho Ing Vanning suyuqli nabirasi, San Xunning o'g'li – Doki ham ishtirok etadi. Aslida Doki roman syujetidagi voqea-hodisalarni harakatga keltiruvchi markaziy qahramondir, chunki asarda ko'tarilgan barcha muammo unga borib taqaladi. Muallifning asosiy g'oyasi o'zgarayotgan zamonda bir oila a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan ichki va tashqi ziddiyat, unutilayotgan qadriyatlarga nisbatan har bir qahramonning munosabati, “uch avlod mojarosi”ni aniqlash va yoritib berishga qaratilgan.

Romanning har uch qismi yagona syujet chizig'iga bo'ysundirilgan, ammo, asar kompozitsiyasida bayon etiluvchi voqealar o'rtasida vaqt jihatidan izchillik mavjud emas. Yom Sansopning aksariyat asarlari kabi, bu roman voqealari ham poytaxt shahar – Seulda kechadi. Janubiy koreyalik adabiyotshunos Kim Chong Yun shu nuqtai nazardan Yom Sansopni rus adibi Dostoyevskiy bilan qiyoslaydi: “Dostoyevskiy o'zi tug'ilib o'sgan shahar – Peterburgni o'z asarlarining manzarasiga aylantirganidek, Sansop ham o'zi tug'ilgan va yashagan Seulni o'zining deyarli barcha asarlarining manzarasiga aylantirdi”⁷.

Poytaxtning o'rta sinfiga mansub muallif mamlakat tarixini, azaliy qadriyatlarini yaxshi bilgan, seulliklarga xos shevaning o'ziga xos jihatlaridan xabardor bo'lgan va o'z navbatida, bundan o'z asarlarida unumli foydalangan. Yozuvchi oilaning uch avlod vakili misolida 20-yillar koreys jamiyati tasvirini mohirona chizadi. Davr nafasi, unga

⁵ tvenjang – soyadan tayyorlangan pasta

⁶박완서. 그 많은 싱아는 누가 다 먹었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012. – 쪽 201.

⁷한국문학에서 뽑은 작품. – 서울, 2000. – 24. 쪽

xos xususiyatlar roman qahramonlari xatti-harakatlari va voqealar ortidagi tarixiy manzara tasvirida, shuningdek, romanning bosh mojarosida boʻrtib namoyon boʻladi.

Zamonaviy adabiyot rivojiga ulkan hissa qoʻshgan yozuvchi I Te Junning “Dehqon yerlari” romani dehqonlar hayoti bilan uzviy bogʻliq boʻlib, unda Shimoliy Choson davlatida amalga oshirilgan yer islohoti masalasiga muallifning munosabati aks ettirilgan. Roman syujetini harakatga keltiruvchi, dehqon obrazini turli rakurslarda ochib beruvchi, davr haqida fikr uygʻotuvchi ramz bu – yer.

Roman 17 bobdan iborat boʻlib, 1-12-boblar yapon mustamlakasi davridagi yer, ijarachi dehqon, yer egalarining dehqonlarga oʻtkazgan tazyiqi, dehqon zahmatlari masalasiga qaratilgan. Romanning qolgan 13-17-boblarida mamlakatning ozodlikka erishgan yillari, ijtimoiy maqomi oʻzgargan dehqon, yer islohoti muammolari yoritilgan. Yozuvchi bir umr yollanma ishchi boʻlgan dehqonning haqiqiy yer egasi sifatida oʻz maqomini anglab yetmagani, yer islohoti mazmun-mohiyatini tushunmaganini feodal qoloqlik hamda yapon istibdodi davri bilan uzviy bogʻlaydi. Romanning tuguni ham haqiqiy yer egasiga aylangan dehqonning endi faqat qorin toʻydirish gʻamidan uzoqlashib, yerdan foydalanish muammosiga duch kelishi bilan boshlanadi. Roman tashqaridan boshqarilayotgan ochiq siyosat haqidagi asar sifatida ham yuqori baholandi⁸.

Muallif romanda sotsialistik mafkura taʼsirida tortib olingan yerlar, mulk, yakka tartibdan umumga oʻtish jarayonida oddiy dehqon duch kelgan muammolar zamiriga yangi tuzumning salbiy jihatlarini berkitadi. Bu yozuvchining jamoaviy tartibda ishlashga oʻtish davriga bergan bahosidir.

Umuman olganda, XX asrning 45-yillariga qadar yaratilgan katta hajmli asarlarda mamlakatdagi tuzum oʻzgarishlar, jamiyat hayotiga taʼsir koʻrsatgan tashqi omillar taʼsirida dehqon va ishchi obrazlari kirib keldi. Ilk bor adiblar tomonidan yer, yer islohoti, dehqon, zavod, ishchi kabi mavzularga qoʻl urildi. Shuningdek, yozuvchilar roman janrida davrning oʻtkir muammosiga aylangan azaliy qadriyatlarining tanazzuli, oilaviy rishtalarning buzilishini turli rakurslarda bera oldilar.

⁸ 김재영 농토연구.상하학회 상하학보 –제1집1993. – 쪽 373.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Иванова В.И. Новая проза Кореи. – М., 1987.
2. Путилов Б. Мотив как сюжетобразующей элемент // Типологические исследование по фольклору. – М.: Наука, 1975.
3. Chung Chong-wha. Modern Korean Literature. Ananthology 1908-1965. – London. 1995.
4. Small dictionary of Korean literature. – Seoul. 2000.
5. 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012.
6. 한국문학에서 뽑은 작품. – 서울, 2000.
7. 김재영. 농토연구. 상허학회, 상허학보. – 제1집.1993.